

**Makedonyalik Aleksandr haqida yozma manbalar ma'lumotlari**

*Olimboyeva Xurriyat Dilmurod qizi*

*Urganch Davlat Universiteti*

*Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi I- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Makedonyalik Aleksandr haqida arxiviy yozma manbalar ma'lumotlarini o'rganadi. Aleksandr faoliyati haqida tarixchilarning fikrini umumlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga Aleksandr faoliyatini o'rganish yozma ma'lumotlarni aniqlash va ularni tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Aleksandr hayoti, Makedoniya, Arrian asari, Strabon "geografiya" Kvin Kursiy Ruf asarlari.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются сведения архивных письменных источников об Александре Македонском. Она помогает обобщить мнение историков о деятельности Александра. При этом изучение деятельности Александра, выявление письменных сведений и их анализ является основным целью этой статьи.*

**Ключевые слова:** *жизнь Александра, Македония, труды Арриана, «географические» труды Страбона Квина Курсия Руфа.*

**Annotation:** *This article examines the information of archival written sources about Alexander of Macedonia. It helps to generalize the opinion of historians about Alexander's activities. At the same time, the study of Alexander's activity, the identification of written information and their analysis is the main goal of this article.*

**Key words:** *Alexander's life, Macedonia, Arrian's works, Strabo's "geography" works of Quin Cursius Rufus.*

Makedonyalik Aleksandrning Baqtiriyaga va Sug'diyona yerlariga harbiy yurishlari Mil.avv. 329-yilda boshlanadi. Bu yurushlar o'rta Osiyo tarixida eng

yaxshi o'rganilgan mavzulardan biridir. Aleksandr qo'shinida jangchilar bilan birga bo'lajak tarixchilar Ptalamey, Onesikrit, Xars va Kallisfenlar xizmat qilganlar hamda o'z ma'lumotlarida turli xil siyosiy va madaniy voqiyalarni yozib borganlar. Ularning ma'lumotlari bizgacha yetib kelmagan, lekin dastlabki manbalarda yunon tarixchilari foydalanganlar. Masalan Diodor "Tarixiy kutubxona" Pliniy "Tabiiy tarix" Strabon "Geografiya" va boshqa bir qator tarixchilar o'z kitoblarini yaradilar. Ammo Aleksandr yurishlari haqida keng va to'liq ma'lumotlar Rimlik Kivin Kursiy Ruf va yunonlik Arrian asarlarida saqlangan. Arrian "Aleksandr anabasisi" asar muallifidir. Anabasisi – davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan harbiy yurish yoki "Aleksandr yurishlari" deb tarjima qilingan. Kivin Kursiy Ruf esa "Makedonyalik Aleksandr tarixi" nomli kitobida yoritgan. Arriyaning yana bir "Hindiston" nomli asarida mamlakat tarixiga oid ma'lumotlar va Makedonyalik Aleksandrni Hindistondagi istilosi haqida bayon etilgan. Mil.avv. 329-327- yillar Aleksandr Turondagi istilolaridan so'ng 120 ming kishilik qo'shin bilan Hindikush va Sulaymon tog'laridan oshib Panjob viloyatiga bostirib kiradi. U yerdagi kichkina davlatning ko'pchiligi Aleksandrga itoat etgan. Panjobdagi eng kuchli podsholikdan biri Por Aleksandrga qarshi kurashga o'tlanadi. Ikki shox askarlari o'rtasida shidatliq jang boshlanadi. Porning o'zi ham firi ustida dushmanlar bilan kurashib 9 yoydan og'ir yarador bo'ladi va janglarning birida uning ikkinchi o'g'li vafot etadi. Bu urushda Aleksandr qo'shinlarining g'alabasi bilan yakulanadi. Bu voqiyalarni Arriyan o'zining "Hindiston" nomli asariga bayon qiladi. Rim tarixchisi Kivin Kursiy Ruf ma'lumotlariga ko'ra Baqtiriya Oks daryosigacha bo'lgan masofa 400 stodiy (75 km) ni tashkil etgan. Bu masofani Aleksandr askarlari Ikki yarim kun ichida bosib o'tadi. Aleksandr termizning va Kalif o'rtasida kechib o'tadi. Amudaryodan kechib o'tishining eng qadimgi joyi Termizdan g'aribdagi sho'rob va Gozar bo'lgan. Straboning "Geyagrafiyasi" asarida yozilishicha Aleksandr Baqtiriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga asos slogan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilganlari jumladan Baqtiriyadagi Kartiata (bu yerda Kallisfen qo'lga tushib qamoqqa olingan), sug'diyonadagi Maroqanda va Kira Yaksart daryosidagi Kir tamonidan qurilgan oxirgi shahar bu fors davlatining chekkasi bo'lgan. Aleksandr Kirni hurmat-

izzat qilgan bo'lsada bu shahar aholisining ko'pdan-ko'p qo'zg'alonlari sabablariga ko'ra, uni vayron qilishga buyriq bergan. Sug'diyona ichidan oqayotgan daryoni, Aleksandr aytishicha, makedonlar Poliment deb atashgan (xuddi shunday ular boshqa ko'p nomlarni almashtirganlar va qisman o'zgartirganlar Ariylar yeridan oqayotgan Ariy daryosiga o'xshab, bu daryo davlat yerlarini sug'orib dasht va sahro viloyatiga intiladi vaqumlar ichida yo'qolib ketadi.

**Xulosa:** Makedonyalik Aleksandr o'z davrining kuchli hukumdori edi. Shu zamonlarda siyosiy jarayonlar shunday sarkarda, podsho shaxisni talab etadi. Aleksandr yurishlari tarixi jahon adabiyotlarida juda ham mashhurdir. Uning hayoti faoliyati va yurishlari haqida yunonlar, rimliklar, forslar va arablar ko'p asarlar yozganlar. Makedonyalik Aleksandr yurishlari yozma manbalarda Qadimgi sharq va O'rt Osiyo tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlarning ko'pchiligiga asos bo'ladi. Tarixchilar Aleksandr haqidagi turli fikriga ega, ularning fikirlari solishtirilishiga qarab o'zgarib boradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Kabirov – “Qadimgi Sharq tarixi” – “Tafakkur” Toshkent 2016. 278-280
2. a.S.Sagdullayev – “ O'zbekiston tarixi” 1- kitob – “Fan” nashriyat – Toshkent 2018. 162-165.
3. R.Rajabov – “qadimgi Dunyo Tarixi” – “Fan va texnologiya “ Toshkent 2009. 289
4. D.Urakov, R.Tursinov, A. Biyhuziyev, B.Xaynazarov – “Jahon tarixi” “Innavatsiya-ziyo” Toshkent 2020. 200-220.